

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti “Gidrotexnika qurilishi”*

*fakulteti “Gidroenergetika” yo’nalishi talabasi*

***Mansurova Ruxshona Zohidovna***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarda ayollarning bevosita ishtiroki zarurligi va katta ahamiyatga molik ekanligi e’tirof etilgan. Jamiatning turli sohalarida: ma’naviy, ijtimoiy-maishiy muammolarni hal qilishda xotin-qizlarning faolligini oshirish, davlat tomonidan, ularning faol bo’lishlari uchun shart-sharoit hamda imkoniyatlarni yanada takomillashtirish masalalari yoritilgan. Yangilanayotgan O’zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda balki siyosiy jarayonlarda ham xotin-qizlar faolligi masalasi bilan bog’liq dolzARB muammolar tahlil qilingan.

**Kalit so’zlar:** ayol, huquq, ayollar huquqlari, gender tenglik, faol, yangi O’zbekiston.

Yangi O’zbekistonda, ya’ni inson huquqlari kafolatlari ta’minlangan demokratik va fuqarolik jamiyatida ijtimoiy-siyosiy faol ayollarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtiroki talab etiladi. Mazkur ishtirokni ko‘pchilik bo‘lib ta’minlash esa hammamizning zimmamizdagi vazifadir. Shu bois, jamiyatda xotin-qiz va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni yaratishda ilmiy asoslangan g‘oyalar, takomillashgan qonunlar hamda samarali amaliy choratadbirlar bilan ishlarni davom ettirish muhim bo‘lib qolmoqda. O’ylaymanki, oldimizga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishda Yozgi maktab muhim rol o‘ynaydi.

Darhaqiqat, mamlakatimiz inson huquqlariga sodiqligini tantanali ravishda e’lon qilib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda jamiyatda inson qadri va manfaatlarini ta’minlash borasida qator islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Jamiatning yaxlit rivojlanishi va uning barcha a’zolari

farovonligining oshirilishi erkaklar bilan xotin-qizlarning to‘liq va teng ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlarni taqozo etadi. Ayollar tomonidan o‘z inson huquqlarini to‘la va teng amalga oshirilishi mamlakatda tinchlikni mustahkamlash va demokratiya uchun eng muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa hozirgi globallashuv davrida xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy faolligini oshirish davr talabiga aylanmoqda.

Hozirgi vaqtida mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Ayollarning barcha sohalardagi samarali mehnati, ayniqsa farzandlar tarbiyasi, oila hayotidagi ulkan xizmatlarini hech narsa bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydi. Ayni vaqtida Davlatimiz rahbari tomonidan xotinqizlarga yaratib berilayotgan imkoniyat va sharoitlar tufayli ayollarimiz davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etmoqda, ularning mavqeい tobora oshib bormoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat siyosati xotin-qizlarimizga chinakam baxtli yashashlari uchun, ularning huquq va erkinliklarini ta’minlash, intellektual va ma’naviy yuksalishi, kasbiy hamda oilaviy majburiyatlarni hamohang tarzda bajarishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’birlari bilan aytganda, “Ayollarning baxti – xalqimiz, jamiyatimizning baxtidir”

Ma'lumki, 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat siaftida ma'qullangandi. Hozir davrda O'zbekistonning islohotlarida inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan bir paytda, hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol huquqlarining tan olinmaslik holatlari shuningdek, ayrim holatlarda jamiyatda ham xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga yetarlicha ahamiyat berilmayotgani haqiqatdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar», 2 deb belgilanganligidir. Demak, gender tengligining ham xalqaro ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga

alohida e'tibor qaratilayotgani natijasida universitetda ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi to'rt yilda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng huquqlaridir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomasi qoidalari qo'llanilishi” belgilangan.

SHuningdek, qonunda gender tushunchasi ham qayd etilgan bo'lib, unga ko'ra, gender — xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihatni ko'rsatilgan. Demak, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Balki har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi, xolos. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining ta'minlanishidadir.

Darhaqiqat, qadim yunon Suqrot, Arastu, Aflatun kabi olimlari eng yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik vaadolat hukm surgan polisni nazarda tutishgan. eng yaxshi qonunlar sifatida ham barcha tengligini kafolatlagan qonunlarni ilgari surishgan. erkak va ayollar tengligi g'oyasini yunon olimi Antifont o'z asarlarida qo'llagan holda: «Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi», deb ta'kidlagan. SHarq qomusiy olimlardan Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida tenglik hukm surgan davlatni fozillikka intilgan davlat sifatida qayd etgan bo'lsa, 1791 yilda Olimpiya De Guj tomonidan tayyorlangan fuqarolik va ayol huquqi deklaratsiyasida ilk bor ayollarning erkin fikrlash va o'z fikrini bildirish huquqiga ega ekanligi e'tirof etilgan. Gender tengligining huquqiy rivojiga e'tibor beradigan bo'lsak, eng avvalo, gender tenglikning huquqiy asoslari xalqaro va milliy qonunchilikni tarixiy-nazariy va huquqiy jihatlarini tahlil etish

joiz. Albatta, barchamizga ma'lumki, 1948 yilda BMT Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida erkak va ayollarning tengligi alohida e'tirof etilgan bo'lib, Deklaratsiyaning 1-moddasida «Hamma odamlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak», deya ta'rif berilgan.

BMT tomonidan 1966 yilda qabul qilingan yana bir xalqaro hujjat – Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 3-moddasida ta'kidlanishicha, «Mazkur paktda ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va ayollar uchun ushbu Paktda ko'rib chiqilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanishini ta'minlash majburiyatini oladi». Aynan mazkur xalqaro norma “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida” qonunning 2-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir,-degan moddaning amaliy va huquqiy asosidir. Demak, yuqorida qayd etilgan xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan mustaqil davlatimiz xalqaro huquqning umume'tirof etilgan talablaridan kelib chiqib o'z milliy qonunchiligidagi ayollar va erkaklar tengligi masalasiga jiddiy ahamiyat berishining sababi ham asoslidir.

Ana shunday izchillik bilan amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida jamiyatimizda tinchlik va iqtisodiy barqarorlik ta'minlanmoqda. Kundalik hayotiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, xalq farovonligida, jamiyat tinchligida hamda iqtisodiy barqarorlikda erkak va ayolning teng huquqliligi muhim o'rinni tutadi. Gender tengligini ta'minlash bo'yicha davlat miqyosida ishlab chiqilgan qonunlar va dasturlar ham muhim ahamiyatga ega. Hatto Jahon Iqtisodiy forumi (The Global Gender Gap) o'tkazgan tadqiqot natijalariga qaraganda, xotin-qizlar erkaklarga nisbatan bir yilda qariyib 35 kundan ko'proq ishlar ekan. BMT Bolalar Jamg'armasi (YUNISEF) tadqiqotlariga qaraganda esa, qizlar o'g'il bolalarga nisbatan biror ishni bajarishda 35-36 foiz ko'p vaqt sarflar ekan. Bu hali ham dunyoda gender tengligiga erisha olinmayotganligini ko'rsatadi.

Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugun oilada, jamiyatda, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Biroq tan olish kerak, ayrim mamlakatlarda ayollarning o'mni oshxonada, degan qarashlar hali ham butkul yo'qolmagan.

Aslida ayollarga nisbatan har qanday zo'ravonlik barcha aqli jamiyatlarda, jumladan, Islomda ham qoralanadi. Ayollarga nisbatan kuch ishlatish tajovuz hisoblanadi. Ularga nisbatan hech qanday kuch, zo'ravonlik, urish, kaltaklashni ishlatib bo'lmaydi. Nasihat qilish, u kor qilmasa, sekin turtib ogohlantirish, u ham kor qilmasa, yotoqlarida tark qilish ko'zda tutilgan.

### **Foydalilanhan adabiyotlar:**

1. Kostelnik, Marjorie; Purcell, Sarah Yeffken; Schroeder, Debra Ye.; Nelson, Mary Ye.; Krumbach, Yeileen M.; Hanna, Janet S.; Durden, Tonia Renee; Defrain, John; and Bosch, Kathy R., «Helping Children Resolve Conflict: Aggressive Behavior of Children. G2016» (2010). Faculty Publications from Nebraska Center for Research on Children, Youth, Families, and Schools. 72. <https://digitalcommons.unl.yedu/cyfsfacpub/72>.
2. Клецина И.С. Психология гендерных отношений: Автореф. дис ...докт. психол. наук. – Санкт-Петербург, 2004.
3. Yestefanía Yestévez, Amapola Povedano, Teresa I. Jiménez and Gonzalo Musitu. Aggression in adolescence: a gender perspective. 2012. <https://www.uv.yes/~lisis/amapola/cap13/psycolo-agression-cap13.pdf>.
- 1.<https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/violence-against-women>
2. <https://www.gazeta.uz/ru/2022/04/26/violence/>
- 3.<https://miit.uz/ru/gender/natsionalnaja-programma-povyshenija-aktivnostizhenschin-uzbekistana>
4. <https://www.gazeta.uz/ru/2019/09/05/yequality/>
5. <https://lex.uz/pages/404.aspx?aspxerrorpath=/docs/4494712>